TURK ELI

International Scientific Journal



Volume 1 | Special Issue Part 2 | 2026

Manas, Kyrgyz Republic

www.turkeli.science

TURK ELI
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

The journal is officially registered as a mass media outlet by the Justice Department of Manas Region under the Ministry of Justice of the Kyrgyz Republic in accordance with Registration Certificate No. 10339 dated March 11, 2024. The journal is registered under the title “TURK ELI” International Scientific Journal and is authorized for publication in Kyrgyz, Turkish, Uzbek, Kazakh and English languages.

Honorary President
Sarvar Ispahi

Editor-in-Chief
Jenishbek Duysheev

Deputy Editor in-Chief
Rahmonali Hasanov

Editorial Board:

Ablat Khodjaev (Prof. Dr.)
Shakimashrip Ibraev (Prof. Dr.)
Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Kubanychbek Kalchakeev (Prof. Dr.)
Abdimajid Madraimov (Prof. Dr.)
Shukhrat Sattorov (Prof. Dr.)
Ibrahim Kush (Dr.)
Faig Elekberli (Dr.)
Erdenebayar Nasanbat (Dr.)
Gulnara Anarbaeva (Dr.)
Nurgul Aldabek (Dr.)
Nurjamal Myrzabaeva (Dr.)
Takhirjan Kazakov (Dr.)
Elmira Hazratkulova (Dr.)
Azamat Kaliev (Dr.)
Abdulvakhidkhon Nuriddinov (Dr.)

About this Special Issue

This Special Issue presents selected papers from the International Scientific Conference
Ijtimoiy fanlar va jamiyat taraqqiyoti:
barqaror rivojlanishning strategik yo‘nalishlari

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: turkeli.science
E-mail: editor@turkeli.science


TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
TITU
TOSHKENT – 2022
TOSHKENT IQTISODIYOT VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI
IJTIMOIY FANLAR VA JAMIYAT TARAQQIYOTI:
BARQAROR RIVOJLANISHNING
STRATEGIK YO‘NALISHLARI
GLOBAL MIQYOS
STRATEGIYA VA TARAQQIYOT
ILM-FAN VA INNOVATSIYA
JAMIYAT VA INSON KAPITALI
XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
ILM-FAN ORQALI BARQAROR KELAJAK SARI
2026-yil 15-may

K. G. Makhamatjonovna	The Importance of Scientific and Educational Resources in Improving the Information Environment of the Educational Process	91
S. Ociyev	The History and Fate of the Uzbek Delegates to the First Turkological Congress	93
M. Tuhtakhujaeva *G. Kadirova*	Resolving Conflicts between Teachers and Students in Schools: Distinctive Features of Collaboration with Parents	96
M. Nazarova	The Role of Modern Storage Technologies in Reducing Food Waste	100
Kh. Nizamova	The Grammatical Structure of Compliments in Analytic and Agglutinative Languages: A Comparative Study of English and Uzbek	103
S. Kh. Butaeva	The Global Integration of Digital Transformation and the Green Economy	106
Sh. T. Dadaboyev	Privileges and Opportunities Created under State Programs to Promote Youth Self-Employment	109
D. Tulevberdiyeva *G. Ergashev*	Economic Mechanisms for Developing Youth Entrepreneurship in the Digital Economy: The Case of Uzbekistan	112
P. Q. Kholmatov *M. Akhmedova*	Current Issues of Time Management in Pedagogical Practice: The Essence, Prerequisites, Origin, and Major Stages of the Development of Time Management	115
R. Khakimov *S. A. Dustnazarova* *S. Qodirqulov*	The Integration of the Digital Economy and Green Growth in New Uzbekistan: A Driver of Sustainable National Development	119

Privileges and Opportunities Created under State Programs to Promote Youth Self-Employment

Dadaboyev Shavkat Toirjonovich (Teacher)[1]
shavkatdadaboyev5@gmail.com | ORCID: 0009-0000-8932-3591
[1.] Tashkent University of Economics and Technologies
Tashkent, Uzbekistan

Abstract.
This article discusses the opportunities and privileges being established in Uzbekistan to support youth self-employment. The introduction highlights significant reforms in the national education sector, explains their essence, emphasizes the relevance of the topic, and outlines the goals and objectives of the study. The article elaborates on the objectives and tasks of education, as well as the economic and theoretical foundations for organizing the labor market to ensure the efficient use of labor potential. It examines the procedures for implementing self-employment activities, including the approval of regulations, and outlines the privileges and opportunities created for self-employed individuals. In the conclusion, recommendations are provided to enhance state programs aimed at fostering youth self-employment.
Keywords: self-employment, state programs, efficient use of labor potential, labor market, small business and entrepreneurship, objectives and tasks of education

Davlat dasturlarida yoshlarni o‘z-o‘zini bandligini ta‘minlash bo‘yicha yaratilgan imtiyoz va imkoniyatlar

Dadaboyev Shavkat Toirjonovich (o‘qituvchi)[1]
shavkatdadaboyev5@gmail.com | ORCID: 0009-0000-8932-3591
[1.] Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
Toshkent, O‘zbekiston

Annotatsiya.
Mazkur maqola yurtimizda yoshlarni o‘z-o‘zini bandligini ta’minlash bo‘yicha yaratilayotgan imkoniyat va imtiyozlar haqida so‘z yuritadi. Maqolaning kirish qismida yurtimizdagi talim sohasidagi muhim o‘zgarishlar hamda ularning mohyati haqda ma’lumot berilgan, mavzuning dolzarbligi yoritilgan, maqsad va vazifalari bayon etilgan. Mazkur maqolada ta’limning maqsad va vazifalari hamda Mehnat salohiyatidan samarali foydalanishda mehnat bozorini tashkil qilishning iqtisodiy va nazariy asoslari yoritib berilgan.
O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida O‘zini o‘zi band qiladigan shaxslarga yaratilgan imkoniyatlar va imtiyozlar keltirib o‘tilgan. Maqolaning xulosa qismida Davlat dasturlarida yoshlarni o‘z-o‘zini bandligini ta’minlash bo‘yicha yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar bo‘ycha tavsiyalar keltirilgan.
Kalit so‘zlar: o‘z-o‘zini band qilish, davlat dasturlari, mehnat salohiyatidan samarali foydalanish, mehnat bozori, kichik biznes va tadbirkorlik sub‘ektlari, ta‘limning maqsadi va vazifalari

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni yanada takomillashtirish faoliyatida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning muhim yo’nalishlaridan biri – mehnatga bo’lgan munosabatni tubdan o’zgartirish, yoshlarning bandligini ta’minlash ularni qo’llab quvvatlash mehnat munosabatlarini tubdan yangilash hamda mehnatni moddiy rag’batlantirish tizimini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda.

So’nggi yillarda iqtisodiyotda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo’nalishlaridan biri kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari harakatini rivojlantirish bo’lib, bu jarayon tarmoqda band bo’lgan mehnat munosabatlaridan samarali foydalanishdagi o’zgarishlarga sabab bo’ldi. Ishchilar o’rtasidagi munosabatlarni adolatli tarzda qonuniy va me’yoriy xujjatlar asosida tashkil etishga keng e’tibor qaratildi. Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasida “Yangi ish o’rinlari tashkil etish, bandlikni ta’minlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari doimo e’tiborimiz markazida bo’lib qolmoqda. Ish o’rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta’minlash bo’yicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2023 yilda qariyb 970 ming kishi ish bilan ta’minlandi. Bu ish o’rinlarining 60,3 foizdan ortig’i qishloq joylarda yaratildi. Bu borada kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod ish o’rni tashkil etildi[1]. Mamlakatimizda ijtimoiy sohani isloh etish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimida qishloq aholi punktlarining qiyofasini tubdan o’zgartirish, namunaviy loyihalar asosida yangi uy-joylar qurish, qishloqda mohiyat e’tibori bilan yangi infratuzilmani shakllantirish hisobidan qishloq ahlining hayotini yanada yaxshilashga alohida e’tibor qaratmoqdamiz. Iqtisodiyotning izchil va barqaror rivojlanishini ta’minlashda kelgusi davr uchun puxta va har tomonlama asoslangan chora-tadbirlar, muhim vazifa va yo’nalishlar, turli darajalardagi iqtisodiy taraqqiyot dasturlarning ishlab chiqilishi va aniq belgilab olinishi muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Ayni paytda, bosib o’tilgan yo’l – oldingi davrdagi erishilgan yutuq va natijalarni tanqidiy baholash orqali tegishli xulosalar chiqarish, ular asosida ijtimoiyiqtisodiy rivojlanish dasturlarini yanada takomillashtirib borish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlarini taxlil etish kabi vazifalarni bajarish muhim ahamiyat kasb etadi va ayniqsa, hozirgi sharoitda yanada dolzarb bo’lib bormoqda.

Muhokama. Mehnat bozoridagi ehtiyojlar, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari uchun raqobatbardosh

kadrlarni ta’lim bosqichlarini joriy qilish orqali tayyorlash hamda turli yoshdagi shaxslarning “Hayot davomida ta’lim olish” prinsipi asosida ta’lim olishga bo‘lgan talablarini qondirish ta’limning maqsadi hisoblanadi.

Quyidagilar ta’limning vazifalari hisoblanadi:

- ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo‘lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo‘lgan talablarini qondirish;
- mehnat faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash;
- mahalliy va xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o‘quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish;
- xalqaro tasniflagich darajalari bilan uyg‘unlashgan tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlarini hamda o‘qitishning kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;
- ta’lim olish bilan birgalikda o‘quvchilarga tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha zarur bilimlarni berish va ularni kelgusida o‘z biznesini tashkil etishi yuzasidan metodik qo‘llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish;
- mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish, uni barqaror o‘stirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarida samarali ishtirok etishga qodir bo‘lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o‘quv jarayoniga innovatsiya shakllar, texnologiyalar va ishlanmalarni faol qo‘llab, ta’lim va ishlab chiqarishning o‘zaro hamkorligini ta’minlash;
- shaxslarning ta’lim muassasalarini ixtiyoriy tanlashi va kasb yoki mutaxassislik bo‘yicha bilim olish, shuningdek, “Hayot davomida ta’lim olish” prinsipi asosida kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlashdan o‘tish imkoniga ega bo‘lish sharoitlarini yaratish;
- ta’lim olish orqali shaxsning intellektual, madaniy va ma’naviy rivojlanishga bo‘lgan individual ehtiyojlarini qondirish, talabalarda vatanparvarlikni, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda ularda mas’uliyat va ijodiy faoliyatni rivojlantirish[2].

Harakatlar strategiyasida mehnat bozori mutanosibligini va infratuzilmasi rivojlanishini ta’minlash, mehnatga layoqatli aholining mehnat va tadbirkorlik faolligini to‘liq amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish, ishchi kuchi sifatini yaxshilash, ishga muhtoj shaxslarni kasbga tayyorlash tizimini kengaytirish vazifalari belgilangan.

Joriy etilayotgan yangi tizim xalqaro andozalarga to‘la mos bo‘lishi uchun 14 ta xalqaro tashkilot bilan hamkorlikda rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari o‘rganildi.

Germaniya, Shveysariya, Koreya, Turkiya va Xitoy hamda YuNESKO, Britaniya Kengashi, Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyati, Osiyo taraqqiyot banki, Evropa ta’lim fondi, Turkiya hamkorlik agentligi, Xitoyning Universitetlar uyushmasi kabi qator xorijiy davlat va tashkilotlardan 200dan ortiq nufuzli xalqaro ekspertlar jalb etildi va ulardan salmoqli xulosalar olindi[3].

Mehnat salohiyatidan samarali foydalanishda mehnat bozorini tashkil qilishning iqtisodiy asoslari.

Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiyotning oldida turgan muhim vazifalardan biri mehnat salohiyatidan samarali foydalanish va uni shakllantirish va rivojlantirishdan iboradir. Buning uchun, hammadan avval ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar rivojlanishining ob’ektiv qonunlaridan unumli va samarali foydalanish zarur. U ishlab chiqarish jarayonida texnika va mutaxassislardan, material va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni to‘g‘ri tashkil etgan holda, mehnat unumdorligi oshishini ta’minlaydi, mutaxassislarning salomatligini saqlashga, mehnatni hayotiy ehtiyojga aylanishiga yordam beradi. Bu vazifalar quyidagilardan iborat: mehnat intizomini yaxshilash; mehnat sharoitini yaxshilash; mehnatni engillashtirish; xodimlarning madaniy-texnikaviy darajasini sistematik ravishda oshirish; mehnatni mahsulot ishlab chiqarishdagi sarfini kamaytirish maqsadida takomillashtirish. Ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari ta’sirida va rivojlanishida insonlar mehnati tashkil etiladi. Shuning uchun mehnatni tashkil etishni 2 jihati mavjud: 1. Tabiiy – texnik. 2. Ijtimoiy – iqtisodiy. Bu ikki jihat har doim bog‘liq bo‘lib, doimo bir-biriga ta’sir ko‘rsatadi. Mehnatni tashkil etishni quyidagi asosiy vazifalari mavjud: mehnatni taqsimlash va kooperatsiyalash, korxonada mehnat vazifalari bo‘yicha muvofiq holatda ishchilar va guruhlarni taqsimlash; mehnatni me’yorlash kabi vazifalardan iborat bo‘ladi[4]. Ma’lumki, iqtisodiy taraqqiyotda inson va uning mehnati jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchi hisoblanadi. Faqat inson ehtiyojini juda muhim deb bilgan va uning samarali takror ishlab chiqarilishini ta’minlangan jamiyatgina eng yuqori taraqqiyotga erishadi. Bozorlar orasida mehnat bozori alohida o‘rin tutadi. Bozor iqtisodiyotining ajralmas va muhim tarkibiy qismi – mehnat bozoridir. Mehnat bozorida ishchi kuchi yollanma mehnat sifatida namoyon bo‘ladi. Yollanib ishlaydiganlar ish bilan bandlarning, shu jumladan menejerlar va ma’murlarning ham aksariyat ko‘pchiligini tashkil qiladi. Mehnat bozorisiz muvozanatli iqtisodiyotni bunyod etib bo‘lmaydi, chunki iqtisodiyotni boshqarish avvalo odamlarning mehnat faoliyatini boshqarishni nazarda tutadi. Mehnat bozori bozorning boshqa barcha tizimlari bilan o‘zaro bog‘langan. Haqiqatdan ham, talabga ega bo‘lish uchun ishchi kuchi jismoniy, aqliy va kasbiy qobiliyatlarning belgilangan majmuasiga ega bo‘lishi kerak. Ishlab chiqarish jarayoniga bu qobiliyatlarni tatbiq eta turib, u o‘z iste’mol sifatlarini yo‘qotmasligi uchun doimo qayta ishlab chiqarilishi lozim.

1-jadval

O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida davlat soliq xizmati organlaridan ro‘yxatdan o‘tish.

Bosqichlar	Sub’ektlar	Tadbirlar	Ijro muddati
1-bosqich	O‘zini o‘zi band qilgan shaxs	O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tish uchun maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabineti orqali yoxud davlat soliq xizmati organiga kelgan holda so‘rovnomani to‘ldirish.	O‘zini o‘zi band qilgan shaxsning xohishiga ko‘ra
2-bosqich	Davlat soliq xizmati organlari	Mavjud ma’lumotlar (jismoniy shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, pasport (ID-karta) seriyasi va raqami, yashash manzili to‘g‘risidagi ma’lumotlar) asosida davlat soliq xizmati organlarida o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risida matrisali shtrix kodga (QR-kod) ega bo‘lgan ma’lumotnomani yuborish.	1. Real vaqt rejimida 2. Avtomatik tarzda

3-bosqich	O‘zini o‘zi band qilgan shaxs	Maxsus mobil ilova yoki shaxsiy kabinet orqali davlat soliq xizmati organlarida o‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida ro‘yxatdan o‘tganligi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani yuklab olish.	O‘zini o‘zi band qilgan shaxsning xohishiga ko‘ra

O‘zini o‘zi band qiladigan shaxslarga yaratilgan imkoniyatlar va imtiyozlar. Yurtimizda fuqarolarning mehnat va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ish bilan ta’minlanish sohasida ijtimoiy kafolatlar berish, aholini ishsizlikdan himoya qilishni ta’minlash kabi izchil davlat siyosati amalga oshirib kelinmoqda.

Jumladan, uyda repetitorlik faoliyati bilan shug‘ullanish, deraza va eshik pardalarini tikish, o‘rnatish, kashtachilik, oylayn konsultasiyalar berish va boshqa shu kabi 68 ta turdagi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxslar elektron tarzda ro‘yxatdan o‘tgan holda qonuniy mehnat bilan shug‘ullanish imkoniyati yaratilgan. Mazkur qarorga asosan o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarning faoliyati qonunga muvofiqlashtirilib, bir qator qonun imtiyozlaridan foydalanish imkoniyati yaratildi. Xususan, elektron mehnat daftarchasi yuritiladi va pensiyaga chiqish jarayonida ushbu davr ish staji sifatida inobatga olinadi. Mehnat staji hisoblanishi uchun o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan yiliga bazaviy hisoblash miqdorining kamida bir baravari (375 000 so‘m) miqdorida ixtiyoriy tartibda to‘lovlarni amalga oshirilishi lozim. Ushbu mablag‘ to‘liqligicha budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga yo‘naltiriladi va undan kelib chiqqan holda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun o‘rnatilgan tartibda pensiya hisoblash uchun daromad hajmi aniqlanadi va shu yo‘l orqali o‘zini o‘zi band qilgan shaxsning davlat pensiya ta’minoti kafolatlanadi.

O‘zini o‘zi band qiladigan shaxslarga yaratilgan imkoniyatlardan foydalaning. Sizning qo‘lingizda hunaringiz bor, jismoniy va yuridik shaxslarga maishiy va texnik xizmat ko‘rsatasiz, xususiy repititorlik, trenerlik va konsultantlik yoki tarjima qilish xizmatlari bilan shug‘ullanasiz, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat yuritasiz, dasturlash xizmatlarini taqdim etasiz. Demak, bilingki, siz o‘zini o‘zi band qiladigan shaxs – frilanser hisoblanasiz.

Hozirgi kunda, o‘zini o‘zi band qiladigan shaxslar o‘z faoliyatini davlat soliq qo‘mitasidan ro‘yxatdan o‘tkazish orqali ish stajiga ega bo‘ladilar. Buning uchun o‘zini o‘zi band qiladigan shaxs sifatida soliq idoralari yoki Davlat soliq qo‘mitasi mobil ilovasidan ro‘yxatdan o‘tib, yiliga bazaviy hisoblash miqdorining 50%i, ya’ni 187500 so‘mni to‘lash orqali bir yillik ish stajiga ega bo‘lishingiz mumkin. Ushbu summa to‘liqligicha byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga yo‘naltiriladi va undan kelib chiqqan holda o‘rnatilgan tartibda pensiya hisoblash uchun daromad hajmi aniqlanadi. Shu orqali siz o‘z pensiyangizni ta’minlashingiz mumkin[4].

Xulosa. O‘zini o‘zi band qilganlar boshqa **jismoniy shaxslarga** og‘zaki kelishuv asosida ish yoki xizmatlarni taqdim etishlari mumkin. **Yuridik shaxslar** bilan esa ular faqatgina bir martalik ish yoki xizmatni ko‘rsatish uchun yozma shartnoma tuzgan holda ishlashlari mumkin. Bitta katta hajmli ishni bajarish kerak bo‘lsa, uni bir necha qismlarga bo‘lib bajarishga to‘g‘ri keladi. Shartnomaning muayyan tasdiqlangan shakli yo‘q: uni yuristlar bajariladigan ish yoki xizmatning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda tuzadilar.

Bunda o‘zini o‘zi band qilganlar barcha ishlarni mustaqil ravishda bajarishlari kerak: yollanma ishchilar mehnatidan foydalanish mumkin emas. Shuning uchun mehnat resurslari sonining dinamikasi, pirovard natijada, aholi soni dinamikasini aks ettiradi. O‘smirlar va pensionerlarning mehnat bilan bandlik darajasidagi o‘zgarishlar faqat mehnat resurslariga emas, balki aholining soniga ham daxldordir. Ishlab chiqarish jarayonning tizimi qo‘yidagilarni ifodalaydigan mehnatni tashkil etishni ilmiy tamoillariga asoslanishi kerak: - mehnat taqsimotini chukurlashtirish va ishlab chiqarish jarayonining maqsadga muvofik qismlarga bo‘linishiga asoslanib, mehnatni kooperatsiyalashni yaxshilash; - ishchilarning mutaxassislik malaka tarkibini to‘g‘ri tanlash va joy-joyiga qo‘yish; - mehnatning eng ratsional usul va yullarini ishlab chiqish va qo‘llash bilan mehnat jarayonlarini takomillashtirish; - har bir xizmat funktsiyasini aniq reglamentlash asosida ish o‘rinlariga xizmat qilishni yaxshilash; - meqnat sarfini kamaytirish, rezervlardan foydalanish asosida meqnatni me’yorlashni takomillashtirish va jixozlarning eng to‘g‘ri ish rejimlari aniqlash; - ishchilar malakasini oshirish, tajriba almashuvi va ilg‘or mehnat usullarini tarqatish kabi vazifalarni bajarilishi kelgusida kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarida mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning yangi imkoniyatlarini ochib beradi.

References

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagi «Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida»gi PQ-3160-sonli qarori.
2. Sh.M.Mirziyoev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” 2017 y.
3. Sh.M.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: «O‘zbekiston», 2017-yil.
4. O‘zini o‘zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida o‘zbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining qarori 23.12.2020 yildagi 806-son
5. Q.Abduraxmonov Mehnat iqtisodi, T, 2016.
6. Yo.Abdullaev Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. –T.: O‘quv qo‘llanma. “Mehnat”, 2002. 334 b.
7. A.Bekmuradov, S.Sattorov, J.To‘raev, Q.Soliev, S.Ro‘ziev Kichik biznes va tadbirkorlik rivoji –davr talabi. –T.: TDIU, 2015.